

TASAVVUFDA ISHQ, SAMO VA MA'RIFAT: TASAVVUFIY TAFAKKUR HAMDA ADABIY-ESTETIK AN'ANALARNING SHAKLLANISHI

Abdinazarov Mansur Abdurahmon o'g'li
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur matnda tasavvufning ma'naviy-falsafiy mohiyati, uning adabiyot, musiqa va estetik tafakkur bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Unda samo, zikr, she'riyat va tasavvufiy ramzlarning ruhiy tarbiya vositasi sifatidagi o'rni ochib beriladi. **Kalit so'zlar:** Tasavvuf, ishq, samo, zikr, ma'rifat, komil inson, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, tasavvufiy adabiyot, manoqib, hikmat, may ramzi, Naqshbandiya, ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haqq ul-yaqin, ruhiy kamolot, irfon, murshid, tasavvufiy estetika.

Аннотация: В данном тексте анализируется духовная и философская сущность суфизма, его неразрывная связь с литературой, музыкой и эстетической мыслью. Раскрывается роль неба, зикра, поэзии и мистических символов как средств духовного воспитания.

Ключевые слова: суфизм, любовь, небо, память, просветление, совершенный человек, Ахмад Яссави, Алишер Навои, мистическая литература, философия, мудрость, символ мая, Накшбандия, илм уль-якин, айн уль-якин, хакк уль-якин, духовное совершенство, ирфан, муршид, мистическая эстетика.

Abstract: This text analyzes the spiritual and philosophical essence of Sufism, its inextricable connection with literature, music and aesthetic thought. It reveals the role of the sky, dhikr, poetry and mystical symbols as a means of spiritual education.

Keywords: Sufism, love, heaven, remembrance, enlightenment, perfect person, Ahmad Yassavi, Alisher Navoi, mystical literature, philosophy, wisdom, symbol of May, Naqshbandiyya, ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin, haqq ul-yaqin, spiritual perfection, irfan, murshid, mystical aesthetics.

Tasavvuf tarixida rindlik yo'nalishiga mansub jamoalar ham mavjud bo'lib, ular ko'pincha samo (eshitish), raqs va she'rxonlik majlislari orqali ruhiy poklanishga erishganlar. Bu majlislarda musiqadan ham foydalanilgan va vaqt o'tishi bilan bu an'ana Sharq musiqasida murakkab tizimlar, jumladan, shashmaqom kabi yuksak badiiy shakllarning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Biroq ayrim davrlarda samo va musiqaning tashqi shakliga berilib ketish holatlari ham kuzatilgan bo'lib, bu tasavvufning asl mohiyatidan uzoqlashishga, natijada jamiyatda unga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib kelgan. Shu bilan birga, haqiqiy shayxlar samo va

she'riyatdan pedagogik vosita sifatida foydalanganlar. Ular muridlariga hadis, odob, hol va maqomlarni tushuntirish jarayonida she'rlardan parcha o'qib, hikoyatlar keltirish orqali ta'sirchan irshod olib borganlar. Bu an'ana Robiya Adaviya, Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy, Abu Said Abul Xayr, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi ko'plab shayxlar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Ahmad Yassaviyning hikmatlari tasavvufiy haqiqatlarni xalqona, sodda va ta'sirchan shaklda yetkazishning yorqin namunasi hisoblanadi[3].

Tasavvuf tarixida samo (musiqa va raqs orqali zikr qilish) masalasiga munosabat bir xil bo'lmagan. Bu borada Bahouddin Naqshbandning pozitsiyasi muvozanatli va ehtiyotkor yondashuv namunasi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Rivoyat qilinishicha, undan: "Siz samoga qanday qaraysiz?" deb so'ralganda, u zot: "Biz bu amalni qilmaymiz, ammo inkor ham etmaymiz", deb javob berganlar[5]. Ushbu fikr Naqshbandiya tariqatining asosiy tamoyili bo'lgan sukutiy zikr, ichki intizom va shariatga qat'iy rioya qilish prinsiplarini ifodalaydi. Shu bilan birga, boshqa tariqatlarda amal qilinadigan usullarni mutlaq rad etmaslik tasavvufdagi bag'rikenglik va xilma-xillikni ko'rsatadi.

Najmiddin Komilov tasavvufning badiiy-estetik tabiatini tahlil qilib, o'zining "Tasavvuf" asarida tasavvufiy adabiyotni "falsafiy adabiyot" sifatida talqin qiladi[5]. Olimning fikricha, tasavvuf adabiyoti inson, borliq va Mutlaq Haqiqat o'rtasidagi munosabatlarni ramziy va badiiy shaklda ifodalovchi o'ziga xos tafakkur tizimidir. Shu jarayonda tasavvuf adabiyotida mustaqil janrlar tizimi shakllandi. Tasavvufiy adabiyotda vujudga kelgan muhim janrlardan biri manoqib janridir. "Manoqib" atamasi arabcha "manqaba" so'zidan kelib chiqib, "fazilatlarni sanab o'tish, ta'riflash" ma'nosini anglatadi. Bu janrda shayxlar va avliyolarning hayoti, karomatlari, axloqiy fazilatlari muridlari tomonidan rivoyatlar va hikoyatlar asosida bayon etiladi.

Manoqib asarlarining asosiy vazifasi - tinglovchi va o'quvchini ibrat, tarbiya va ma'naviy poklanishga undashdir. Ushbu janrda ko'pincha naql, rivoyat, shuningdek, bir hududdan boshqasiga ko'chib yuruvchi umumiy motiv va syujetlardan foydalanilgan[1].

Tasavvuf adabiyotida nafaqat didaktik, balki lirik va epik janrlar ham keng rivojlandi. Jumladan, ruboiy, g'azal, qit'a, qasida kabi lirik janrlar bilan bir qatorda, masnaviy shaklidagi epik asarlar tasavvufiy g'oyalarni keng ko'lamda ifodalash imkonini berdi. Bu holat tasavvuf adabiyotining badiiy imkoniyatlarini yanada boyitdi. Tasavvufiy poetikada markaziy ramzlardan biri - may obrazidir. Tasavvufiy talqinda may jismoniy ichimlik emas, balki ilohiy ishq, ma'rifat nuri va ruhiy jazbaning ramzi hisoblanadi.

Maydan "sarxush bo'lish" - bu visol bexudligi, ya'ni qalbning Haq tajalliyoti bilan to'lib-toshgan holatidir. Xumor va mayparastlik obrazlari tasavvufiy she'riyatda

Mutlaq Ruhning jilvasidan bahramand bo'lish, aql bilan idrok etib bo'lmaydigan haqiqatlarni qalb bilan sezish jarayonini anglatadi. Tasavvufiy e'tiqodga ko'ra, olam azaliy va abadiy Yagona Ruhning o'z jamolini ko'rishga bo'lgan muhabbatidan paydo bo'lgan ilohiy ko'zgidir. Ushbu birlamchi qudratning nuri butun borliqni - zarradan quyoshgacha, yer-u osmonni, sobit va sayyor jismlarni yoritadi va harakatga keltiradi. Shoirlar ana shu ilohiy tajalli jarayonini may timsoli orqali ifodalaganlar. Bu holat, ayniqsa, sharob shar'an "umm ul-xabois" - barcha yomonliklarning manbai sifatida baholangan bir davrda ramziy ifodaning zarurati bilan izohlanadi.

Tasavvufiy antropologiyaga ko'ra, inson tabiati ikki asosdan - ruh va jismdan tarkib topgan bo'lib, ular o'rtasida doimiy kurash mavjud. Agar jismoniy talablar ustun kelib, inson nafs, shahvat va hirs domiga tushsa, u ma'naviy jihatdan tubanlashadi. Bu holatdan chiqish uchun unga komil inson, ya'ni pir va murshid yo'l ko'rsatuvchi bo'ladi. Ruh aslida o'z ilohiy makoniga intiluvchi bo'lib, tasavvufning bosh maqsadi ham ana shu ruhni tarbiyalash, insonni komil inson darajasiga yetkazishdan iboratdir. Tasavvuf nazariyasida bilish jarayoni insonning tashqi olamni idrok etishidan boshlab, ichki ruhiy-mushohadaviy kamolot sari bosqichma-bosqich yuksalishini ifodalaydi. Avval inson borliqni zohiriy idrok, ya'ni sezgi va aql vositasida angelaydi, so'ngra bu idrok chuqurlashib, narsa va hodisalarning ichki mohiyatini his etish darajasiga ko'tariladi. Nihoyat, mohiyatni idrok etish jarayoni ruhiy qoniqish va ma'naviy xotirjamlik bilan yakunlanadi. Tasavvuf manbalarida mazkur bilish yo'li uch bosqichli gnoseologik tizim sifatida izohlanadi: ilm ul-yaqin, ayn ul-yaqin va haqq ul-yaqin. Tasavvufiy terminologiyada "yaqin" tushunchasi shak-shubhasiz, isbot talab qilmaydigan haqiqatni anglatadi. "Ayn" esa ko'z, chashma, narsa-hodisaning asl mohiyatini bevosita ko'rish va his etish ma'nosini bildiradi. Ushbu tasnif tasavvuf bilish nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Tasavvuf nazariyotchilaridan Abdurazzoq Koshoniy bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: so'fiylar aqidasi ko'ra, ma'naviy bilish uch darajada amalga oshadi. Birinchi bosqich - ilm ul-yaqin bo'lib, unda inson haqiqatni aqliy dalil va mantiqiy isbotlar orqali idrok etadi. Ikkinchi bosqich - ayn ul-yaqin, ya'ni bilib olingan haqiqatni mushohada va qalbiy idrok orqali "ko'rish" darajasi. Uchinchi bosqich esa - haqq ul-yaqin bo'lib, unda haqiqat bevosita ruhiy tajriba orqali idrok etiladi[6]. Bu darajada bilish aql chegarasidan chiqib, qalb va ruh vositasida amalga oshadi.

Xuddi shu masala tasavvuf klassiklaridan Ali ibn Usmon Hujviriy tomonidan ham ijtimoiy-ma'rifiy jihatdan talqin etiladi. Uning fikricha, ilm ul-yaqin - aql egalari uchun, ayn ul-yaqin - ilm ahliga, haqq ul-yaqin esa - oriflar, ya'ni ma'naviy kamolotga yetgan zotlar uchundir[4]. Bu tasnif tasavvufda bilish darajalari insonning ichki kamolot darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Mazkur falsafiy silsilaga ko‘ra, haqiqat tajribadan keyin paydo bo‘ladigan hodisa emas, balki tajribadan oldin mavjud bo‘lgan metafizik mohiyatdir. Uni faqat mantiqiy tafakkur bilan emas, balki his-ruh, ya‘ni intuitiv idrok orqali anglash mumkin. Chunki tasavvufiy qarashlarga ko‘ra, haqiqat insonning tashqi olamida emas, balki uning qalbi va ko‘ngil ko‘zgisida mujassamdir. Bu yondashuv ayrim jihatlari bilan Yevropa falsafasidagi gnoseologik konsepsiyalar bilan ham mushtaraklik kasb etadi. Jumladan, nemis faylasufi Immanuel Kant ilgari surgan “narsa o‘zida” (ya‘ni tajribadan avval mavjud bo‘lgan mohiyat) haqidagi ta‘limoti tasavvufdagi haqiqatni bilish konsepsiyasi bilan qiyosiy jihatdan yaqinlik kasb etadi. Har ikkala qarashda ham mutlaq haqiqat aql bilan to‘liq anglab bo‘lmaydigan, balki ichki idrok orqali seziladigan hodisa sifatida talqin qilinadi.

Tasavvufga ayrim davrlarda yangi din yoki mistik bid‘at sifatida qarashlar mavjud bo‘lgan. Biroq ilmiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf alohida din emas, balki islomning botiniy-ma‘naviy tafsiridir. U insonni dunyoni faqat zohiriy aql bilan emas, balki qalb va vijdon orqali idrok etishga undaydi. Shu ma‘noda tasavvuf islom tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tasavvufning tarixiy shakllanishida ikki muhim omil alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, XII–XV asrlarda fan va aqliy tafakkur haqiqiy borliq hodisalarini to‘liq ilmiy asosda tushuntirish imkoniga ega emas edi. Ikkinchidan, insonning aqliy salohiyati bilan axloqiy-amaliy hayoti o‘rtasidagi nomuvofiqliklar jamiyatda chuqur ma‘naviy inqirozlarni keltirib chiqargan edi. Ana shunday sharoitda tasavvuf gumanist shoir va mutafakkirlar uchun insonni nafs, zulm va jaholatdan qaytarishning samarali ma‘naviy yo‘li sifatida namoyon bo‘ldi.

Shu bois tasavvufning asosiy maqsadi - inson axloqini poklash, uni vijdoni bilan yuzma-yuz qo‘yish va haqiqatni qalban idrok etishga yetaklashdir. Tasavvuf yuzaki aqidaparastlikni, ko‘r-ko‘rona taqlidni tanqid qilib, asosiy e‘tiborni Alloh vasliga yetishish, ya‘ni ruhiy kamolotga qaratadi. Bu jihat tasavvufni faqat diniy oqim emas, balki chuqur axloqiy-falsafiy ta‘limot sifatida baholashga imkon beradi. Alisher Navoiy ruboiysida ishq va ramziy tafakkur Buyuk mutafakkir va tasavvufiy adabiyot namoyandasi Alisher Navoiyning quyidagi ruboiysi tasavvufiy ishq falsafasining yuksak badiiy ifodasi sifatida talqin etilishi mumkin:

Zohid, senga hur, menga Janona kerak,

Jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak.

Mayxona aro soqiy-u paymona kerak,

Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

Mazkur ruboiyda qo‘llangan badiiy obrazlar tasavvufiy ramzlar tizimi asosida qurilgan bo‘lib, ular zohiriy emas, botiniy ma‘noni ifodalaydi. Jumladan, “may” - ilohiy fayz va

ma'rifat nuri ramzi, "Janona" - Mutlaq Haq, ya'ni Alloh taoloning o'zi, "mayxona" - oriflar jam bo'ladigan ma'naviy makon, "soqiy" - pir yoki murshid, "paymona" esa ishq va ma'rifat mezoni sifatida talqin etiladi.

Ruboiyning birinchi misrasida zohid obrazi keltiriladi. Tasavvufiy an'anada zohid - dunyodan yuz o'g'irgan, taqvoga amal qiluvchi, ibodatni asosan savob va jannat umidi bilan bajaruvchi inson timsolidir. Navoiy bu yerda zohidlikni inkor etmaydi, biroq undan yuqori bo'lgan ishq maqomini qarama-qarshi qo'yadi. Shoir nazarida jannat - maqsad emas, balki vosita; asl maqsad esa jannat egasi bo'lgan Janona, ya'ni Allohning jamolini ko'rishdir. Bu fikr tasavvufda keng tarqalgan g'oya - visol tushunchasi bilan bog'liq. Ya'ni haqiqiy oshiq uchun jannat ne'matlari emas, balki Haq bilan yaqinlik eng oliy saodat hisoblanadi. Shu ma'noda ruboiyda ifodalangan qarash: "Men jannatni emas, jannatning Egasini istayman", degan tasavvufiy falsafaning she'riy ifodasidir. Ikkinchi va uchinchi misralarda esa ishqqa eltuvchi yo'l ramziy tarzda ko'rsatiladi. Mayxona - bu shariat doirasidan chiqish emas, balki tariqat va ma'rifat makoni bo'lib, unda murshid (soqiy) muridga ilohiy ishq "mayi"ni tutadi. Paymonaning to'la bo'lishi esa ishqning kam emas, balki to'liq va yondiruvchi bo'lishi lozimligini anglatadi. Bu hol tasavvufda "ishqning kamol darajasi" sifatida talqin qilinadi.

Alisher Navoiyning ushbu qarashlari uning "Layli va Majnun" asarida ham izchil davom ettiriladi. Asarda Majnun obrazi tug'ma ishq sohibi sifatida talqin qilinadi. Rivoyatga ko'ra, Majnunni Ka'baga olib borib, undan ishqdan xalos bo'lishini so'rab duo qilishni iltimos qilganlarida, u: "Agar ishq kam bo'lsa, yana ziyoda qil", deya iltijo qiladi. Bu epizod ishqning tasavvufdagi eng oliy ne'mat ekanini yaqqol ko'rsatadi. Tasavvufda ishq insonni komillikka yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu bois ishq nafaqat hissiy holat, balki ma'naviy kamolot mezoni sifatida talqin etiladi. Bu qarashlar Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham markaziy o'rin egallaydi. U shunday deydi:

Ishq bozori ulug' bozor, savdo harom,
Oshiqlarg'a sendan o'zga g'avg'o harom.
Ishq yo'lig'a kirganlarg'a dunyo harom,
Har ne qilsang, oshiq qilgil, Parvardigor.

Bu hikmatda ishq barcha dunyoviy manfaatlardan ustun qo'yiladi. Yassaviy talqinida oshiq - nafsdan poklangan, Haqqa yuz tutgan inson bo'lib, uning so'zi va she'ri oddiy badiiy mashq emas, balki jazba va ruhiy sarxushlik mahsulidir.

Tasavvuf tarixida ishqning eng keskin va fidoiy ifodasi Mansur Halloj nomi bilan bog'liq. Uning "Anal Haq" degan mashhur da'vosi tasavvufiy hol (sukr) natijasida aytilgan kalom bo'lib, shariat nuqtayi nazaridan ochiq talqin qilinishi og'ir bo'lgan. Shu bois u qatlgacha yetaklangan. Biroq manbalarda shariat ulamolari Hallojni darhol emas, balki uzoq muddat nasihat va murosa yo'li bilan qaytarishga uringani qayd

etiladi. Bu hol tasavvuf va shariat o'rtasidagi murakkab, ammo uzviy munosabatni ko'rsatadi.

Navoiy ruboiysi, Yassaviy hikmatlari va tasavvufiy an'ana doirasidagi ishq tushunchasi bir umumiy g'oyaga xizmat qiladi: insonni zohiriy ibodatdan botiniy komillikka, savob umididan Haq visoliga yetaklash.

Shu bois ishq tasavvuf va tasavvufiy adabiyotning markaziy kategoriyasi sifatida baholanadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq va ilohiy ilhom Tasavvufiy an'analarda Ahmad Yassaviy hikmatlari nafaqat shaxsiy tafakkur mahsuli sifatida, balki Alloh taolo tomonidan ilhomlangan ilm va maslahat sifatida qabul qilinadi. Bu jihat ruboiy va hikmatiy she'rlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan:

Sakkizimda sakkiz yondan yo'l ochildi,
Hikmat ayt deb boshlarimdan nur sochildi,
Bihamdilliloh piru mug'om may ichirdi,
Ul sababdan oltmish uchda kirdim yerga[2].

Ushbu misralarda hikmat aytish istagi ruhiy-ilohiy ehtiyojdan paydo bo'lganligi ta'kidlanadi. Olim Ibrohim Haqqul shunday ta'rif beradi: bu holat shaxsiy ilhomdan emas, balki ilohiy yorug'lik va pining rahnamoligi orqali yuzaga keladi[2]. Yassaviy o'z hikmatlarida yosh bosqichlariga alohida e'tibor beradi. U oltmish uch yoshgacha bo'lgan hayotini tafsiflab, har bir davrda duch kelgan sinovlar, imon va ishqni sinash jarayonlarini bayon etadi. Masalan:

O'tiz to'rtida olim bo'lib dono bo'ldim,
Hikmat ayt deb subhon aydi, go'yo bo'ldim,
Chilton birla sharob ichdim hamroh bo'ldim,
Ichi toshim Xaq nurig'a to'ldi do'stlar.

Bu misralarda "may ichish" ramzi - Alloh ishq va ruhiy visol sarxushligi sifatida talqin qilinadi; bu tasavvufiy obrazning ruhiy tajriba va ilohiy ilhomga yo'naltirilgan ekanini ko'rsatadi. Yassaviy hikmatlarida Qur'on va Hadis bilan bog'liqlik alohida o'rin egallaydi. U har bir hikmatida shariat me'yorlari va Qur'on o'qish tartibini ham ko'rsatadi. Masalan:

Saharlarda Qur'on o'qib sano qilsam,
Haziratiga qo'l ko'tarib duo qilsam,
Zori qilib bu jonimni fido qilsam,
Saharlarda ko'p ibodat qilg'um kelur.

Bu misralar orqali tasavvufiy ishqning shariat bilan uyg'unligi, ruhiy tarbiya va Allohga muhabbatning bir-birini to'ldirishi ko'rsatiladi.

Tasavvuf islomning botiniy-ma'naviy tafsiri sifatida insonni axloqiy poklanish, ruhiy kamolot va Haq visoliga yetaklaydi. Tasavvufiy adabiyot va she'riyatda ishq markaziy

tushuncha bo‘lib, u ilohiy haqiqatni qalban idrok etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Ahmad Yassaviy hikmatlari va Alisher Navoiy ruboiylari tasavvufning xalqona va yuksak badiiy ifodasini namoyon etadi. Samo, zikr va she‘riyat esa murid tarbiyasida muhim pedagogik vosita vazifasini bajargan. Shu jihatdan tasavvuf nafaqat diniy oqim, balki chuqur axloqiy, estetik va falsafiy tafakkur tizimi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Haqqul I. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Toshkent, 2012. – 101–109-betlar
2. Haqqul I. Yassaviyda hikmat aytish istagi ilohiy-ruhiy ehtiyoj tufayli paydo bo‘lgan, Toshkent, 2012, 52–57-betlar
3. Hasanov N. Yassaviy hikmatlarining ma‘rifiy asoslari. – Toshkent, 2018. – 101–110-betlar
4. Hujviriy A. Kashf ul-mahjub. – Lahor, nashr yili. – 497-bet
5. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2009. – 142-bet.
6. Koshoniy A. Masobih ul-hido. – Tehron, nashr yili. – 52-bet.